



MEDIAFALSAFA TUSHUNCHASINING AKSIOLOGIK INTERPRETATSIYASI VA UNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li,

University of economics and pedagogy NOTM

Matematika va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1705>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

АННОТАЦИЯ/ АННОТАЦИЯ

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 46

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

mediafalsafa, aksiologik yondashuv, media makon, media madaniyat, mediaetika, tanqidiy fikrlash, refleksiv tafakkur, qadriyatlar transformatsiyasi, media savodxonlik, pedagogik aksiologiya, raqamli ta'lim, mediaaxborot

Mazkur maqolada mediafalsafa tushunchasining nazariy-konseptual asoslari, uning aksiologik interpretatsiyasi hamda pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda media makonning talaba shaxsi tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'siri yoritilib, aksiologik yondashuv asosida mediaaxborotlarni qadriyatli tahlil qilishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, mediafalsafaning talabalarda tanqidiy va refleksiv fikrlashni rivojlantirish, media madaniyat va mediaetikani shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Mediafalsafiy yondashuvning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhitidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, mazkur maqolada mediafalsafa zamonaviy raqamli jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi kommunikativ jarayonlarni tushunishning metodologik asosi sifatida qaraladi. Tadqiqotda media makonning shaxs ongiga ta'siri nafaqat axborot almashinuvi, balki qadriyatlar shakllanishi va ijtimoiy ong transformatsiyasi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi. Bu esa mediafalsafaning pedagogik jarayondagi integrativ funksiyasini yanada chuqurroq ochib beradi. Maqolada, shuningdek, raqamli ta'lim muhitida mediaaxborotlarni tanqidiy va aksiologik baholash mexanizmlarini rivojlantirish zarurati asoslab beriladi. Talabalarda mediaetik madaniyatni shakllantirish, virtual muhitda mas'uliyatli kommunikatsiyani yo'lga qo'yish hamda axborot oqimlariga ongli munosabatni kuchaytirish masalalari dolzarb pedagogik vazifa sifatida ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, mediafalsafiy yondashuvning sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi istiqbollari ham yoritilib, kelajak ta'lim tizimida innovatsion aksiologik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shu jihatdan, mediafalsafa zamonaviy ta'limning nazariy-metodologik asoslarini boyituvchi va uning sifatini oshiruvchi muhim ilmiy yo'nalish sifatida talqin etiladi.

ABOUT THE PAPER

ANNOTATION

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 46

KEYWORDS

media philosophy, axiological approach, media space, media culture, media ethics, critical thinking, reflexive thinking, transformation of values, media literacy, pedagogical axiology, digital education, media information

This article analyzes the theoretical and conceptual foundations of the concept of media philosophy, its axiological interpretation and pedagogical significance. The study highlights the impact of the media space on the student's thinking, value system and spiritual and moral views, and reveals the pedagogical possibilities of a valuable analysis of media information based on an axiological approach. It also substantiates the role of media philosophy in developing critical and reflexive thinking in students, forming media culture and media ethics. The didactic possibilities of the media philosophical approach in the higher education system and its significance in the modern digital educational environment are scientifically highlighted. This article also considers media philosophy as a methodological basis for understanding new communicative processes emerging in the modern digital society. The study analyzes the impact of the media space on the consciousness of the individual not only from the point of information exchange, but also from the point of value formation and transformation of social consciousness. This further reveals the integrative function of media philosophy in the pedagogical process. The article also justifies the need to develop mechanisms for critical and axiological evaluation of media information in the digital educational environment. The issues of forming a media ethical culture in students, establishing responsible communication in the virtual environment, and strengthening a conscious attitude to information flows are considered as urgent pedagogical tasks. In addition, the prospects for the integration of the media philosophical approach with artificial intelligence and digital technologies are highlighted, emphasizing that it will serve to form innovative axiological competencies in the future education system. In this regard, media philosophy is interpreted as an important scientific direction that enriches the theoretical and methodological foundations of modern education and improves its quality.

Kirish. Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida media makon inson tafakkuri, dunyoqarashi hamda ijtimoiy qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, internet texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng rivojlanishi natijasida yoshlarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish va baholash mexanizmlarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur jarayon mediafalsafa tushunchasining pedagogik va aksiologik jihatdan chuqur tadqiq etilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Chunki mediafalsafa nafaqat media vositalarning texnologik imkoniyatlarini, balki ularning inson ongi, qadriyatlarini, axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy tafakkuriga ta'sirini ham o'rganadi. Shu nuqtayi nazaridan, talabalarda mediafalsafiy bilimlarni shakllantirish, ularda mediaaxborotlarni tanqidiy va qadriyatli tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy media muhiti ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda talaba nafaqat an'anaviy bilim manbalari, balki raqamli platformalar, virtual kommunikatsiya muhiti va multimedia resurslari orqali ham bilim

olmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida media madaniyat, mediaetika, tanqidiy fikrlash va aksiologik tafakkurni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, media makonda tarqalayotgan turli destruktiv g'oyalari, manipulyativ axborotlar hamda ommaviy madaniyat elementlari talabalarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mediafalsafani aksiologik yondashuv asosida o'rganish orqali talabalarda media jarayonlarga ongli, refleksiv va qadriyatli munosabatni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mediafalsafa zamonaviy falsafiy tafakkurning yangi yo'nalishlaridan biri sifatida media vositalarning inson ongi, tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari va madaniy jarayonlarga ta'sirini o'rganadigan fanlararo ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur tushuncha "media" va "falsafa" kategoriyalarining integratsiyasi asosida shakllangan bo'lib, axborot uzatish vositalarining nafaqat texnologik imkoniyatlarini, balki ularning epistemologik, aksiologik va antropologik xususiyatlarini ham tahlil qiladi. Mediafalsafa insonning media muhit bilan o'zaro aloqasi jarayonida yuzaga keladigan tafakkur shakllari, qadriyatlar transformatsiyasi hamda virtual kommunikatsiyaning ontologik mohiyatini ilmiy jihatdan

izohlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan u media makonning shaxs dunyoqarashi va ijtimoiy ongga ko'rsatadigan ta'sirini falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot doirasida mediafalsafa, aksiologik yondashuv hamda pedagogik mediakompetentlikni masalalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, muammo ikki asosiy yo'nalishda yoritilgan: birinchisi media va kommunikatsiya falsafasi, ikkinchisi pedagogik aksiologiya va media ta'lim integratsiyasi.

Avvalo, pedagogik aksiologiya asoslarini yoritishda O. Musurmonova tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ta'limning uyg'unligi asoslab beriladi [1, 45–52 b.]. Ushbu yondashuv zamonaviy ta'lim jarayonida qadriyatga yo'naltirilgan pedagogikaning metodologik poydevorini tashkil etadi.

S. Nishonova asarlarida esa komil inson tarbiyasi masalasi markaziy o'ringa qo'yilib, ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi muhimligi ta'kidlanadi [2, 88–95 b.]. Muallifning qarashlari mediafalsafiy yondashuv bilan bevosita bog'lanib, raqamli muhitda shaxsning ma'naviy immunitetini shakllantirish zaruratini asoslaydi.

O'. Tolipov va M. Usmonboyeva ishlarida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalasi yoritilib, ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, interaktiv yondashuvlar va kompetensiyaviy modelning ahamiyati ochib beriladi [3, 110–118 b.]. Bu esa mediafalsafa doirasida raqamli ta'lim va media texnologiyalar integratsiyasini asoslashga xizmat qiladi.

J. Yuldashev va S. Usmonov tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning amaliy tatbiqi tahlil qilinib, raqamli ta'lim muhitida o'qitish samaradorligini oshirish omillari yoritilgan [4, 132–140 b.]. Ushbu qarashlar media makonda ta'lim jarayonining transformatsiyasini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy adabiyotlar ichida M. McLuhan tomonidan ilgari surilgan "medium is the message" konsepsiyasi mediafalsafaning fundamental nazariy asoslaridan biri sifatida e'tirof etiladi [5, 120–128 b.]. McLuhan media vositalarni faqat axborot uzatish kanali emas, balki inson tafakkurini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv mediafalsafaning epistemologik va aksiologik tahlil yo'nalishlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

J. Baudrillardning "simulyatsiya va giperrealizm" nazariyasi zamonaviy media makonda haqiqat va tasvir o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishini asoslab beradi [6, 54–60 b.]. Bu esa media muhitda qadriyatlar transformatsiyasi va manipulyativ axborotlarning kuchayishini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

P. Virilio media tezligi va axborot portlashi konsepsiyasi orqali zamonaviy jamiyatda axborot oqimining haddan tashqari tezlashuvi inson idrokiga ta'sirini tahlil qiladi [7, 70–75 b.]. Ushbu yondashuv raqamli muhitda talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

F. Kittler media texnologiyalarni madaniy va texnik tizim sifatida o'rganib, yozuv, kino va audio tizimlarning inson tafakkuriga ta'sirini ochib beradi [8, 140–148 b.]. Bu yondashuv mediafalsafaning texnologik va antropologik asoslarini kengaytiradi.

M. Castells esa "tarmoq jamiyati" konsepsiyasi orqali global axborotlashuv jarayonida ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishini asoslab beradi [9, 210–220 b.]. Bu nazariya media makonning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tushinishda muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlar ichida D. Ismoilova media savodxonlik muammolarini tahlil qilib, raqamli ta'lim sharoitida axborotlarni tanqidiy baholash zarurligini ta'kidlaydi [10, 46–50 b.]. U.U. Karimov esa raqamli pedagogika sharoitida media madaniyatni rivojlantirish masalalarini yoritib, ta'lim jarayonida media kompetensiyalarni shakllantirishning amaliy jihatlarini ochib beradi [11, 18–22 b.].

M. Abdullayeva talabalarda mediakompetentlikni shakllantirishning pedagogik omillarini o'rganib, media ta'limning didaktik mexanizmlarini asoslab beradi [12, 66–70 b.]. B. Yuldashev esa oliy ta'lim tizimida media texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilib, interaktiv ta'lim muhitining samaradorligini ko'rsatadi [13, 91–95 b.].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, mediafalsafa va aksiologik yondashuv kesishmasida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi hamda media madaniyatini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda mediafalsafaning pedagogik integratsiyasi masalasi hali to'liq tizimli ravishda ishlab chiqilmagan bo'lib, bu yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda mediafalsafa tushunchasining aksiologik va pedagogik jihatlarini yoritishda falsafiy-mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Falsafiy-mantiqiy tahlil orqali mediafalsafaning nazariy-konseptual asoslari va uning epistemologik hamda aksiologik mohiyati o'rganildi. Tizimli yondashuv media makon, qadriyatlar tizimi va ta'lim jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil esa mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida mediafalsafa va media ta'limga oid qarashlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlari orqali zamonaviy raqamli ta'lim muhitida mediafalsafiy yondashuvning amaliy ahamiyati asoslab berildi.

Natijalar. Media va falsafa integratsiyasining ilmiy asoslari insonning axborot bilan o'zaro munosabati hamda media vositalarning bilish jarayoniga ta'siri bilan belgilanadi. Falsafa tarixida bilish nazariyasi, kommunikatsiya va ong muammolari doimo muhim o'rin egallagan bo'lsa, zamonaviy davrda ushbu masalalar media texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinmoqda. Media insonning voqelikni qabul qilish usullarini o'zgartirib, yangi kommunikativ madaniyatni shakllantirmoqda. Shu sababli mediafalsafa media vositalarning epistemologik funksiyasini, ya'ni bilim hosil qilish va uni uzatishdagi rolini o'rganadi. Bundan tashqari, mediafalsafa aksiologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki media makon orqali tarqalayotgan axborotlar shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya sharoitida axborotning tezkorligi va ommaviyligi inson tafakkurida yangi media madaniyatning shakllanishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy ilmiy talqinlarda mediafalsafa media makonni insonning yangi yashash va tafakkur muhiti sifatida baholaydi. Bugungi kunda mediafaoliyat faqat kommunikativ jarayon emas, balki shaxsning identifikatsiyasi, ijtimoiylashuvi va ma'naviy-axloqiy pozitsiyasini shakllantiruvchi omil sifatida talqin qilinmoqda. Shu jihatdan mediafalsafa media savodxonlik, mediaetika, raqamli madaniyat va virtual kommunikatsiya jarayonlarini falsafiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda mediafalsafa talabalarning tanqidiy fikrlashi, refleksiv tafakkuri va axborotni qadriyatli baholash kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim nazariy asosi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa mediafalsafaning nafaqat falsafiy, balki pedagogik jihatdan ham dolzarb ilmiy yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.

Aksiologik yondashuv zamonaviy pedagogikada shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. "Aksiologiya" termini yunoncha "axios" – qadriyat va "logos" – ta'limot tushunchalaridan kelib chiqqan bo'lib, qadriyatlarining mohiyati, ularning shakllanishi va inson faoliyatidagi o'rnini o'rganadigan falsafiy ta'limot sifatida talqin qilinadi. Pedagogik nuqtayi nazardan aksiologiya insonning bilim, axloq, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qadriyatli munosabatini shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Shu sababli aksiologik yondashuv ta'lim jarayonida shaxsning nafaqat intellektual rivojlanishini, balki uning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlashga yo'naltiriladi.

Bugungi globallashtirish va raqamli kommunikatsiya sharoitida qadriyatlar tizimi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Chunki zamonaviy media makonda turli mafkuraviy, madaniy va axborot oqimlarining kuchayishi yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi hamda ma'naviy qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan ta'lim tizimida qadriyatlar tizimini shakllantirish shaxsning ijtimoiy moslashuvi, axloqiy ongini rivojlantirish va mediaaxborotlarga nisbatan ongli munosabat hosil qilishda muhim omil hisoblanadi. Qadriyatlar ta'lim jarayonida bilimning mazmunini insonparvarlik, milliylik, madaniy meros va umuminsoniy tamoyillar bilan boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik jarayonda talabalarning media madaniyatini, mediaetikasini va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish aksiologik yondashuv asosida samarali amalga oshiriladi.

Shaxs rivojlanishida aksiologik tafakkur alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u insonning voqelikni baholash, axborotni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonidagi ma'naviy mezonlarini shakllantiradi. Aksiologik tafakkur orqali shaxs ezigulik va yovuzlik, foydallik va zarar, haqiqat va manipulyatsiya kabi tushunchalarni ongli ravishda farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, zamonaviy media muhitida talabalarning turli axborot oqimlariga duch kelishi ularning refleksiv va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli aksiologik tafakkur mediaaxborotlarni qadriyatli baholash, ularning mazmunini tahlil qilish hamda destruktiv g'oyalarga nisbatan mustaqil pozitsiyani shakllantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa talabalarda mediafalsafiy tafakkur va ma'naviy immunitetini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik aksiologiyaning asosiy tamoyillari insonparvarlik, qadriyatga yo'naltirilganlik, madaniy moslik, refleksivlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi mezonlarga asoslanadi. Insonparvarlik tamoyili ta'lim

jarayonida shaxs manfaatlarini, qadr-qimmatini va erkin fikrlashini ustuvor deb biladi. Qadriyatga yo'naltirilganlik tamoyili esa bilimlarni shaxsning ma'naviy ehtiyojlari va axloqiy qarashlari bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Madaniy moslik tamoyili milliy va umuminsoniy qadriyatlarining integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilsa, refleksivlik tamoyili shaxsning o'z faoliyati va qarashlarini tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ijtimoiy mas'uliyat tamoyili esa talabalarda media makonda ongli va mas'uliyatli faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Mazkur tamoyillar mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida aksiologik yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi.

Zamonaviy media makon insoniyatning ijtimoiy-madaniy hayoti, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi murakkab kommunikativ muhit sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, internet platformalari va global axborot tarmoqlarining rivojlanishi natijasida qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni yanada jadallashdi. Media makonda tarqalayotgan axborotlar insonning axloqiy qarashlari, estetik didi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli mediafalsafa media vositalarning nafaqat texnologik funksiyalarini, balki ularning aksiologik mohiyatini ham tahlil qiladi. Aksiologik interpretatsiya media makonni qadriyatlarini shakllantiruvchi, o'zgartiruvchi va ommalashtiruvchi ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilishga asoslanadi. Bu esa media jarayonlarni insonning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi.

Media makonda qadriyatlar transformatsiyasi global kommunikatsiya va ommaviy axborot oqimlari ta'sirida yuzaga kelmoqda. An'anaviy qadriyatlar tizimi raqamli madaniyat, virtual kommunikatsiya va ommaviy media ta'sirida yangi shakllarga ega bo'lmoqda. Xususan, individualizm, iste'molchilik, ommaviy madaniyat va vizual kommunikatsiya elementlarining kuchayishi yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, media makon milliy va umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib qilish imkoniyatini ham yaratadi. Demak, media makondagi qadriyatlar transformatsiyasi ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bir tomondan ma'naviy tahdidlarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan yangi madaniy va kommunikativ imkoniyatlarni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan mediafalsafaning aksiologik tahlili media vositalarning qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Raqamli axborot muhiti aksiologik ongning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Chunki bugungi talaba asosiy axborotni internet, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia platformalari orqali qabul qilmoqda. Natijada insonning axborotni idrok etish, baholash va unga munosabat bildirish mexanizmlari ham o'zgarib bormoqda. Aksiologik ong shaxsning voqelikni qadriyatlar asosida anglash, baholash va tanlash qobiliyatini ifodalaydi. Raqamli muhit esa ushbu jarayonga tezkorlik, vizuallik va interaktivlik kabi yangi xususiyatlarni olib kirmoqda. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko'pligi, manipulyativ kontentlar va virtual stereotiplarning keng tarqalishi aksiologik ong rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mediafalsafiy yondashuv asosida talabalarda mediaaxborotlarga nisbatan ongli, tanqidiy va qadriyatli munosabatni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mediafalsafiy tafakkurda axloqiy-estetik qadriyatlar alohida o'rin egallaydi, chunki media mahsulotlar insonning nafaqat bilim olish jarayoniga, balki uning hissiy-estetik dunyosiga ham ta'sir qiladi. Media vositalar orqali tarqalayotgan tasvirlar, videolar, reklama va virtual kommunikatsiya shakllari yoshlarning axloqiy me'yorlari hamda estetik qarashlarini shakllantiruvchi omilga aylanmoqda. Shu jihatdan mediafalsafiy tafakkur media kontentlarni faqat axborot manbai sifatida emas, balki ma'naviy-estetik ta'sir vositasi sifatida baholashni talab qiladi. Ayniqsa, talabalarda axloqiy mas'uliyat, mediaetika, estetik did va ma'naviy refleksiyani rivojlantirish mediafalsafaning aksiologik mohiyatini namoyon etadi. Bu esa media makonda tarqalayotgan axborotlarning ijtimoiy va ma'naviy oqibatlarini ongli ravishda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Talabalarining mediaaxborotlarni qadriyatli tahlil qilish kompetensiyasi zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur kompetensiya media kontentlarni tanqidiy baholash, ularning yashirin maqsad va g'oyalarni anglash, manipulyativ ta'sirlarni aniqlash hamda axborotning ma'naviy-axloqiy mazmunini tahlil qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Aksiologik yondashuv asosida shakllantiriladigan ushbu kompetensiya talabalarining media madaniyati va media savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mustaqil pozitsiyasini shakllantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Natijada talabalarda media makondagi axborotlarga nisbatan refleksiv, ongli va mas'uliyatli munosabat rivojlanadi.



1-rasm. Mediafalsafaning pedagogik va aksiologik ahamiyati.

Zamonaviy ta'lim tizimida mediafalsafa talabalarining intellektual, ma'naviy va kommunikativ rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar turli media vositalari orqali ulkan hajmdagi axborot oqimiga duch kelmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida mediaaxborotlarni ongli qabul qilish, tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan mediafalsafa media vositalarning inson tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini pedagogik jihatdan tahlil qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida mediafalsafiy yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, refleksiv tafakkur, media madaniyat va ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Mediafalsafaning muhim pedagogik funksiyalaridan biri talabalarda tanqidiy va refleksiv fikrlashni rivojlantirishdan iboratdir. Zamonaviy media makonda axborotlarning tezkor va ommaviy tarqalishi yoshlarning turli manipulyativ ta'sirlarga duch kelish ehtimolini oshirmoqda. Shu sababli talabalar mediaaxborotlarni tanqidiy tahlil qilish, ularning haqqoniyligini tekshirish va mazmunini mustaqil baholash qobiliyati

muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiv fikrlash esa shaxsning o'z qarashlari, axborotga bo'lgan munosabati va faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Mediafalsafiy yondashuv talabalarga media kontentlarning yashirin g'oyaviy va aksiologik mazmunini anglash, turli axborot manbalarini qiyosiy tahlil qilish hamda mustaqil pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Natijada talabalarda media makondagi voqea-hodisalarga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabat rivojlanadi.

Muhokama. Mediafalsafa media madaniyat va mediaetikani shakllantirishda ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy media muhiti insonning kommunikativ xulq-atvori, nutq madaniyati va virtual muloqot etikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Media madaniyat media vositalardan maqsadli, samarali va mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini ifodalasa, mediaetika axborot almashinuvi jarayonidagi axloqiy me'yor va tamoyillarni belgilaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri axborot tarqatish, virtual zo'ravonlik, manipulyativ reklama va ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi mediaetik kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu jihatdan mediafalsafiy yondashuv talabalarda axborotdan foydalanish

madaniyati, kommunikativ mas'uliyat va virtual muloqot etikasi kabi sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mediafalsafa asosida ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki media vositalar bugungi kunda nafaqat axborot uzatish funksiyasini bajaradi, balki yoshlarning ma'naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va estetik didiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mediafalsafiy ta'lim talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, axloqiy mas'uliyat, tolerantlik hamda ijtimoiy ongini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ayniqsa, media kontentlarni aksiologik tahlil qilish orqali talabalarda ezgulik va yovuzlik, haqqoniylik va manipulyatsiya, madaniyat va ommaviylik o'rtasidagi farqlarni anglash qobiliyati shakllanadi. Bu esa yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash hamda ularni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida mediafalsafiy yondashuvning didaktik imkoniyatlari ham keng ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, multimedia texnologiyalari, mediaanaliz va refleksiv topshiriqlardan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Mediafalsafiy yondashuv asosida tashkil etilgan dars jarayonlari talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, media vositalar yordamida virtual ta'lim muhiti yaratish, vizual-tafakkuriy faoliyatni kuchaytirish hamda axborotlarni interaktiv tarzda o'zlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada mediafalsafiy yondashuv oliy ta'lim tizimida ta'limning innovatsion, aksiologik va kompetensiyaviy yo'nalishini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot davomida mediafalsafa tushunchasining nazariy-konseptual asoslari, uning aksiologik mohiyati hamda pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy media makon inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi muhim kommunikativ muhit hisoblanadi. Shu sababli mediafalsafani aksiologik yondashuv asosida o'rganish talabalarda mediaaxborotlarni ongli qabul qilish, tanqidiy baholash va qadriyatli tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida mediafalsafaning media madaniyat, mediaetika, refleksiv tafakkur hamda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar bilan uzviy bog'liqligi asoslab berildi.

Tahlillar natijasida mediafalsafaning aksiologik interpretatsiyasi media vositalarning nafaqat axborot uzatish funksiyasini, balki shaxsning ma'naviy dunyosi, estetik qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi omil sifatidagi ahamiyatini ochib berishi aniqlandi. Ayniqsa, raqamli axborot muhiti sharoitida yoshlarning turli manipulyativ va destruktiv axborot oqimlariga duch kelishi mediafalsafiy yondashuvning pedagogik zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtayi nazardan mediafalsafa talabalarda tanqidiy va refleksiv fikrlashni rivojlantirish, mediaetik me'yorlarni shakllantirish hamda media makonda mas'uliyatli faoliyat yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musurmonova O. Pedagogik aksiologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 246 b.
2. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 228 b.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 300 b.
4. Yuldashev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
5. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964. – 359 p.
6. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. – Michigan: University of Michigan Press, 1994. – 164 p.
7. Virilio P. Information Bomb. – London: Verso, 2005. – 145 p.

Tadqiqotda aksiologik yondashuvning pedagogik mohiyati ham tahlil qilinib, uning shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi o'rni yoritildi. Aksiologik yondashuv mediafalsafiy ta'lim jarayonida talabalarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan media madaniyatni shakllantirish hamda axborotlarga nisbatan ongli munosabat hosil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, mediafalsafiy yondashuv ta'lim jarayonining interaktivligini oshirish, talabalarning mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun didaktik asos vazifasini bajaradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari mediafalsafa zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida nafaqat falsafiy nazariy yo'nalish, balki muhim pedagogik-aksiologik tizim sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, media makon bugungi kunda shaxsning tafakkuri, qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Shu bois mediafalsafani aksiologik yondashuv bilan uyg'un holda o'rganish ta'lim jarayonida talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida mediafalsafaning epistemologik, antropologik va aksiologik jihatlarini tahlil qilinib, uning ta'lim tizimidagi o'rni va funksiyalari asoslab berildi. Ayniqsa, mediafalsafa talabalarda tanqidiy fikrlash, refleksiv tahlil, media savodxonlik hamda mediaetik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida axborotni faqat qabul qilish emas, balki uni qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi. Shuningdek, aksiologik yondashuv ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalash hamda media axborotlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda asosiy metodologik omil sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli axborot muhitida yuzaga kelayotgan qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida ushbu yondashuvning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mediafalsafiy yondashuv oliy ta'lim tizimida innovatsion didaktik imkoniyatlarni kengaytiradi, talabalarning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, media madaniyat va mediaetika asosida shakllantirilgan ta'lim muhiti yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga yordam beradi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda mediafalsafa va sun'iy intellekt integratsiyasi, virtual ta'lim muhitida aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish, mediaetik madaniyatning raqamli pedagogikadagi o'rni hamda mediafalsafiy tafakkurning yoshlar ma'naviy immunitetiga ta'siri kabi yo'nalishlarni chuqur o'rganish zarur. Shuningdek, oliy ta'lim tizimi uchun mediafalsafaga asoslangan innovatsion metodikalar, mediaanaliz texnologiyalari va raqamli aksiologik ta'lim mexanizmlarini ishlab chiqish istiqbolli ilmiy vazifalar sirasiga kiradi. Mediafalsafa zamonaviy ta'lim va raqamli jamiyat o'rtasidagi integratsiyani ta'minlovchi, shaxsning qadriyatli tafakkuri va ma'naviy-axloqiy barqarorligini mustahkamlovchi muhim ilmiy-pedagogik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

8. Kittler F. Gramophone, Film, Typewriter. – Stanford: Stanford University Press, 1999. – 315 p.
9. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. – 597 p.
10. Ismoilova D. Media savodxonlik va zamonaviy ta'lim muammolari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 45–52.
11. Karimov U. Raqamli pedagogika sharoitida media madaniyatni rivojlantirish masalalari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2021. – № 5. – B. 18–24.
12. Abdullayeva M. Talabalarda mediakompetentlikni shakllantirishning pedagogik omillari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 66–72.
13. Yuldashev B. Oliy ta'lim tizimida media texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Samarqand, 2022. – № 4. – B. 91–97